



MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TAMINLASHDA HUDUDLARNING SOLIQ POTENSIALINI O'RNI

Ismoilov Muslimjon Qambarali o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0003-2598-6240

muslimjonsoliq1804@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududlarning soliq potensialiga ta'sir etuvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Hududlarni soliq potensialini oshirishga doir budjet-soliq siyosatiga doir chora-tadbirlar tizimi, hududlarni soliq to'lay olish qobiliyati, ularni oshirish va soliqlarni undirish jarayonida sodir bo'ladigan munosabatlar xorij tajribasi asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: soliqlar, soliq potensial, reprezentativ soliq tizimi, yuridik shaxslar, soliq tushumlari, soliq tekshiruvlari.

РОЛЬ НАЛОГОВОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ

Исмоилов Муслимжон Камбарали угли

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье анализируются макроэкономические показатели, влияющие на налоговый потенциал регионов. Система мер бюджетно-налоговой политики по повышению налогового потенциала регионов, возможность регионов платить налоги, взаимоотношения, возникающие в процессе их повышения и взимания налогов, освещены на основе зарубежного опыта.

Ключевые слова: налоги, налоговый потенциал, репрезентативная налоговая система, юридические лица, налоговые поступления, налоговые проверки.

THE ROLE OF THE TAX POTENTIAL OF THE REGIONS IN ENSURING FINANCIAL STABILITY

Ismoilov Muslimjon Kambarali ugli

Tashkent State University of Economics

Annotation. This article analyzes the macroeconomic indicators affecting the tax potential of the regions. The system of budget-tax policy measures to increase the tax potential of the regions, the ability of the regions to pay taxes, the relations that take place in the process of increasing them and collecting taxes are highlighted on the basis of foreign experience.

Key words: taxes, tax potential, representative tax system, legal entities, tax revenues, tax audits.

Kirish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda avvalombor, soliq siyosati samaradorligini oshirish, soliq turlari va ularning amal qilish mexanizmini soddalashtirish, soliq yuki xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida optimal taqsimlash soliq tizimi oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida amalga oshiriladigan soliq sohasidagi islohotlarda asosiy e'tibor tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirishni ko'zda tutadi, lekin shu bilan birgalikda soliqlarning asosiy fiskal funksiyasi bajarilishi ko'p jihatdan soliqlarning budjetga o'z vaqtida va to'liq undirilish jarayoniga bog'liq.

Bugungi davlat boshqaruvida mahalliy budjetni to'ldirish siyosatini samarali tashkillashtirish har bir hududni iqtisodiy-ijtimoiy yuksalishidagi muhim jihatlarni aniqlashda asosiy o'rinni egallaydi. Budjetga soliqlarni va to'lovlarni o'z vaqtida tushushi bo'yicha hududlar salohiyatini aniqlash, mahalliy budjet daromadlarini shakllantiruvchi omillarni to'lov qobiliyatini oshirish va kelib chiqishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy salbiy natijalarni oldindan aniqlash zaruriyat hisoblanadi. Natijada, hududlarni soliq to'lay olish qobiliyatini aniqlash, qanday qilib budjet daromadlarini ko'paytirish mumkin degan savollarga javob topish uchun ilmiy asoslangan tavsiya va takliflarga murojaat qilinadi.

Adabiyotlar sharhi.

Chet el adabiyotlarida ko'rishimiz mumkinki soliq potentsiali asosida ma'lum hududning soliq tushumlari ko'rinishida daromad keltiradigan soliq bazasi tushuniladi. Xususan, Pelevin (2014) fikriga ko'ra, bugungi kunda soliq potentsialini baholash ahamiyatli topshiriqlardan biri hisoblanadi, bu nafaqat budjetga tushadigan solikli tushumlarni o'sishini, shuningdek ushbu hududning soliq va boshqa tushumlari tushushi prognoz darajasini aniqlash imkonini beradi. Soliq to'lovlarini tahlil qilishning birinchi bosqichi soliq bazasining holatiga ta'sir qiluvchi mintaqaviy omillarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Mintaqaning soliq potentsialini shakllantirish jarayoniga quyidagi bloklar ta'sir ko'rsatadi:

- tartibga soluvchi va qonunchilik;
- iqtisodiy;
- budjet.

Chun-Yan Kuo (2000) soliq potentsialini soliq to'lovchilarning soliq to'lay olishi yoki davlatning daromad olish qobiliyati tarzida ifodalaydi.

Yuqoridagi fikrlarni o'rganar ekanmiz bu fikrlarga qo'shila olmaymiz. Chunki soliqlarni to'lash qobiliyatini soliq potentsiali bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Soliq potentsialiga soliqlarni to'lash qobiliyatidan boshqa omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Shuningdek Amerika Qo'shma Shtatlarining hukumatlararo munosabatlar bo'yicha Maslahat qo'mitasi tomonidan soliq potentsialini davlat xarajatlarini qoplash imkoni mavjud bo'lgan jamiyatning maksimal summasidir deb ta'rif bergan (ACIR, 1982).

Keng ma'noda "soliq potentsiali"- bu hududning soliq solinadigan resurslarining umumiy miqdori. Torroq, amaliy ma'noda "soliq potentsiali"-amaldagi qonunchilikda hisoblab chiqilgan soliq va yig'im tushumlarining mumkin bo'lgan maksimal miqdori.

Soliq potentsiali tushunchasi budjet federalizmi modeli keng qo'llaniladigan ko'pchilik rivojlangan davlatlarda moliyaviy potentsial bilan tenglashtiriladi (Propenko, 2007).

Ko'plab mahalliy iqtisodchi olimlar tomidan ham soliq potentsiali haqida fikr-mulohazalar, ayrim yondashuvlar bildirib o'tilgan. Ulardan Islamkulov (2017) soliq potentsiali har bir davlatning o'ziga xos bo'lgan milliy soliq qonunchiligi, soliq ma'murchiligi, soliq tizimi xususiyatlari bilan izohlanadi deb fikr bildirgan.

Shuningdek Musalimov (2020) hududlarni soliq potentsialini mahalliy budjetlarning daromad salohiyatini aniqlashdagi muhim element deb hisoblaydi. Albatta hududlarning soliq potentsiali har bir hududning o'zining ichki imkoniyatlaridan, iqtisodiy imkoniyatlaridan, soliq resurslaridan va soliq to'lovchilarning to'lov qobiliyatidan kelib chiqib aniqlanadi.

Fikr bildirgan mahalliy va xorijiy olimlarni fikrini o'rganar ekanmiz, ularning soliq potensialiga bergan ta'riflarini bilan tanishishimiz mumkin. Misol uchun Chun-Yan Kuo (2000) soliq potentsiali soliq to'lovchilarni soliqlarni to'lay olish qobiliyati sifatida ta'rif bergan. Amerikalik olimlar esa soliq potensialiga davlat xarajatlarini qoplay olish qobiliyati sifatida qarashgan. Albatta bu berilgan berilgan ta'riflarni hammasi to'g'ri, biroq soliq potentsiali berilgan tushunchalardan kengroq tushuncha. Soliq potentsiali nafaqat soliqlarni to'lay olish qobiliyatini, balki soliq to'lovchilarni ham, soliq qarzlarini undirish qobiliyatini ham, soliq madaniyatini ham o'zida mujassam etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada mantiqiy usul, kuzatuv, tahlil va sintez, tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Har bir iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatda soliq potentsialini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Rus tadqiqotchilari tomonidan soliq potentsialini baholash metodologiyasini tasniflash uchun bir nechta variantlar taklif etgan:

- iqtisodiy daromadlar ko'rsatkichlari bo'yicha baholash metodi; reprezentativ soliq sistemasini shallantirish asosida; soliq hisoboti ma'lumotlariga asoslanib va haqiqiy yig'ilgan soliqlar to'g'risidagi ma'lumotlarga tuzatishlar; soliq potentsiali indekslariga asoslangan holda (Каратаев, 2010);

- iqtisodiy daromadlar ko'rsatkichlariga asoslangan usul; soliq bo'yicha amalda to'plangan soliqlar va yig'imler to'g'risida hisobot berish va ma'lumotlarni tuzatish; indeks yondashuvidan foydalangan holda (Рощупкина, 2014);

- makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanadigan va ularga asoslangan usullar guruhi reprezentativ soliq tizimini shakllantirish (Мионов, 2012).

Soliq potentsialini aniqlashning zamonaviy usullaridan quyidagi ekstrapolyatsion usullarni ko'rishimiz mumkin²⁹:

- soliq hisobotlari ma'lumotlariga va haqiqiy to'plangan soliq to'lovlari bo'yicha baholash usullari;

- hududlarni soliq potentsiali indeksiga asoslangan baholash usuli;

- reprezentativ soliq tizimini shakllantirish usuli;

- jami soliq solinadigan resurslar usuli³⁰.

Hududlarni soliq potentsialini modellashtirish usullari:

- asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali baholash usullari (aholi jon boshiga o'racha pul daromadi; YaHM ko'rsatkichi);

- korrelyatsiya va regressiya tahlili usuli;

- yashirin faoliyatni baholash usuli.

Soliq hisobotlari ma'lumotlariga va haqiqiy to'plangan soliq to'lovlari bo'yicha baholash usuli individual soliqlar bo'yicha hududlarni soliq potentsiali ko'rsatkichlari jamlanmasidan iborat bo'ladi. Har bir soliq turi bo'yicha soliq potentsiali soliq hisoboti bo'yicha hisoblanadi. Buni eng sodda oddiy o'rtacha harakatlanuvchi usul formulasi orqali ko'rishimiz mumkin:

$$\text{НПР}_i^n = \frac{\text{НПР}_i^{n-1} + \text{НПР}_i^{n-2} + \dots + \text{НПР}_i^{n-k}}{k} \quad (1)$$

Bu yerda: НПР- hududlarni soliq potentsiali; n- baholash o'tkaziladigan davr; k- harakatlanuvchining o'rtacha tartibi (Пугачев, 2016).

²⁹ <https://ru.wikipedia.org/wiki/Экстраполяция>

³⁰ Методические аспекты расчета налогового потенциала региона | Региональная экономика и управление: электронный научный журнал.

Reprezentativ soliq tizimining regression usuli o'rta va uzoq muddat uchun prognoz qilishda samarali hisoblanib, bu usul budjet daromadlari hajmini aniqlovchi ma'lum o'zaro bog'liq iqtisodiy ko'rsatkichlar to'plamlaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Mazkur usulning kamchiligi uning murakkabligida bo'lib, turli iqtisodiy xarakterdagi ma'lumotlardan foydalanish hududlar soliq potentsiali ko'rsatkichlarining sezilarli farqlanishiga olib keladi.

Reprezentativ soliq tizimini shakllantirish usuli taqdim etilgan ekstrapolyatsiya usullaridan biri hisoblanib, buni qo'llash orqali soliq tushumlarini prognoz qilish soliq stavkalarini aniqlangan soliq bazalariga qo'llash orqali aniqlanadi. Bu usulni formula bilan ifodalash mumkin:

$$HPP = \sum_{i=1}^n HB_i * t_i \quad (2)$$


Bu yerda: HB_i - i-soliq bo'yicha hududni soliq bazasi; t_i - i-soliq bo'yicha soliq stavkasi (Pyragчев, 2016).

Bu usulning ham o'ziga yarasha kamchiliklari mavjud. Bu usul ko'plab omillarning hudud soliq potentsialiga ta'sirini hisobga olishga imkon bermaydi. Masalan sub'ektlarning rivojlanishidagi farqlarni hisobga olmaydi.

Yuqoridagi fikrlarni o'rganib representativ soliq tizimi deganda, bu soliq bazalariga mos keladigan mamlakatda o'rtacha soliq stavkalari bo'yicha mintaqaviy budjetga mumkin bo'lgan soliq tushumlarini prognoz qilishga asoslangan usulni tushunamiz. Reprezentativ soliq tizimida regressiya usuli yordamida soliq potentsialini quyidagi tenglama yordamida baholashimiz mumkin:

$$Y_j = X_{1j} * B_1 + X_{2j} * B_2 + \dots + X_{mj} * B_m + E_j \quad (3)$$

Bu yerda: Y_j - hududda budjetga to'lanadigan to'lovlar; $j=1,2,3,\dots,n$ -ko'rib chiqilgan hududlar soni; X_{mj} - i-mintaqaning soliq bazasi ko'rsatkichlari; B_m - tasodifiy omillar; E_j - tasodifiy o'lchov xatosi (Pyragчев, 2016).



1-rasm. 2024-yil yanvar-mart oylarida soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarning ixtiyoriy to'lanish darajasi(foizda)³¹

³¹ www.soliq.uz

1-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, 2024-yil yanvar-mart oylarida respublika miqyosida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajaralishi 96 %ni tashkil etdi. Bu borada eng yaxshi ko'rsatkich yirik soliq to'lovchilar, Toshkent shahrida qayd etildi – 97%. Buxoro, Navoiy, Jizzax, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlari – 96%. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon va Namangan viloyatlari – 95%. Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlari – 94%. Bu ko'rsatkichlardan ko'rishimiz mumkinki, soliq madaniyati ham asta-sekin soliq to'lovchilar orasida yuqori darajaga chiqayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Hududlarni soliq potensialini ko'rsatkichlarini quyidagi to'rtta guruhga bo'lib chiqamiz:

- 1.Hududlarni soliq potensialini amalga oshirish darajasi;
- 2.Soliq daromadlarini budjet darajasida taqsimlash nuqtai nazaridan hududlarni soliq potentsiali tizimlari;
- 3.Hududlarning soliq potensialining qo'shimcha nuqtai nazaridan;
- 4.Budjetlararo munosabatlar tizimida hududlarning soliq potentsialinining roli.

Soliq salohiyatini aniqlashning eng oddiy usullaridan yana biri sifatida professor I.Gorskiy tomonidan quyidagi usul ishlab chiqilgan(Gorskiy, 1999):


$$NPR = F + Z + L \quad (4)$$

Bu yerda: NPR — hududning soliq salohiyati, (pul qiymatida);

F — xaqiqiy soliq tushumlari, (pul qiymatida);

Z — hisobot davrida soliq qarzdorligining ortishi (pul qiymatida);


L — hududga to'g'ri keluvchi soliq imtiyozlari (pul qiymatida).



2-rasm. 2024-yil 1-choragida "Avtokameral" tizimi orqali amalga oshirilgan tekshiruvdan oldingi tahlil natijalari(mlrd.so'm) ³²

³² www.soliq.uz

2-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, 2024-yil yanvar-mart oylarida o'tkazilgan tekshiruvdan oldingi tahlillar natijasida 8 997 ta korxonadan tomonidan ko'paytirishga qayta hisobotlar taqdim etilgan va 866,3 mlrd so'm soliqlar hisoblangan. Viloyatlar kesimida Toshkent shahrida "Avtokameral" tekshiruvi natijasida 56,8 mlrd.so'm qo'shimcha soliq aniqlangan. Tekshiruv natijasida Sirdaryo viloyatida eng kam ko'rsatkich 7,9 mlrd.so'm qo'shimcha soliq aniqlangan. Biz yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, qo'shimcha aniqlangan soliqlar hududlarning soliq potensialiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.



3-rasm.2024-yil 1-chorakda hududlar kesimida foydalanilgan soliq imtiyozlari(mlrd.so'm) ³³

3-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, 2024-yilning 1-choragida 155 468 ta tashkilot 8,6 trln.so'm miqdorda soliq imtiyozlaridan foydalangan. Viloyatlar kesimida ko'rishimiz mumkinki, Sirdaryo viloyati 1-chorakda 89,5 mlrd.so'm imtiyozlardan foydalangan. Toshkent shahri 2 454,4 mlrd.so'm imtiyozdan foydalangan holda eng yuqori ko'rsatkich bilan birinchi o'rinni egallab turibdi.

Foydalanilgan soliq imtiyozlarini soliq turlarida kesimida:

- ➔ Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha 3,9 trln.so'm;
- ➔ Yer solig'i bo'yicha 1,8 trln.so'm;
- ➔ Foyda solig'i bo'yicha 1,1 trln.so'm;
- ➔ Mol-mulk solig'i bo'yicha 792,5 mlrd.so'm;
- ➔ Itimoiy soliq bo'yicha 576,7 mlrd.so'm;
- ➔ Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha 214,7 mlrd.so'm;
- ➔ Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha 42,7 mlrd.so'm;
- ➔ Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha 19,8 mlrd.so'm imtiyozdan foydalangan.

³³ www.soliq.uz

1-jadval

2024-yildagi 1-choragida hududlarning soliq salohiyati(mlrd.so'm) ³⁴

		2024-yilning 1-choragida Budjetga tushumlar	2024-yilning 1-choragida foydalanilgan soliq imtiyozlari	2024-yil 1-choragida "Avtokameral" tizimi orqali amalga oshirilgan tekshiruvdan oldingi tahlil natijalari	I.Gorskiy usuli NPR=F+Z+L
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	657,0	157,0	15,2	829,2
2	Andijon viloyati	728,1	151,4	16,4	895,9
3	Buxoro viloyati	785,5	231,4	17,7	1 034,6
4	Jizzax viloyati	512,7	126,7	8,9	648,3
5	Qashqadaryo viloyati	944,6	169,2	21,8	1 135,6
6	Navoiy viloyati	482,1	155,9	18,1	656,1
7	Namangan viloyati	685,7	208,6	13,7	908,0
8	Samarqand viloyati	1 112,3	301,8	21,6	1 435,7
9	Surxandaryo viloyati	695,4	104,5	19,4	819,3
10	Sirdaryo viloyati	355,3	89,5	7,9	452,7
11	Toshkent viloyati	1 442,4	409,8	14,2	1 886,4
12	Farg'ona viloyati	1 112,6	336,6	27,7	1 476,9
13	Xorazm viloyati	656,1	137,3	11,5	804,9
14	Toshkent shahri	5 607,7	2 454,4	56,8	8 118,9
15	Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo DSI	24 501,5	12 283,2	615,5	37 400,2
	JAMI	40 279,0	17 317,3	886,4	58 482,7

2-jadvalda ko'rishimiz mumkinki, I.Gorskiy usuli orqali hududlarning 2024-yilning 1-choragida soliq salohiyati ko'rsatilgan. Viloyatlar kesimida Sirdaryo viloyatining soliq salohiyati 452,7(mlrd.so'm) tashkil qilgan. Haqiqatda, Sirdaryo viloyatida 2024-yilning 1-choragida 355,3(mlrd.so'm) soliqdan tushum tushgan. Gorskiy usulida qo'shimcha 97,4(mlrd.so'm) Sirdaryo viloyatining soliq to'lash qobiliyati aniqlangan. Eng yuqori ko'rsatkich bo'yicha hududlar ichida Toshkent shahri o'rin olganini ko'rishimiz mumkin. Toshkent shahridan 2024-yilning 1-choragida 5 607,7 (mlrd.so'm) soliq budjetga tushgan. Gorskiy usuli orqali Toshkent shahrini 2024-yilning 1-choragida soliq salohiyati 8 118,9 (mlrd.so'm)ni tashkil etgan. Bu esa Toshkent shahrining qo'shimcha 2 511,2 (mlrd.so'm) soliqni budjetga to'lash qobiliyati mavjudligini bildiradi.

Mazkur usul iqtisodchilar o'rtasida "haqiqiy usul" deb nom olgan bo'lib, unda hududning soliq salohiyati budjetga kelib tushgan haqiqiy soliq tushumlariga nisbatan hisoblanadi. Albatta, bunday usul umumiy xarakterga ega. Ya'ni, budjetga kelib tushgan soliq tushumlari bo'yicha soliq salohiyatini aniqlash miqdoriy xususiyatga ega bo'lib, sifat ko'rsatkichlarini e'tiborga olmaydi. Shu bilan birgalikda, soliq turlari bo'yicha soliq bazalari qiymati soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqiladi. Bunda soliq bazalarini hisoblab chiqish ancha murakkabdir.

Xulosa va takliflar.

Bugungi kunda soliq siyosati sohasida hududlarni soliq potensialini aniqlash, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish, soliq tizimini soddalashtirish hamda soliq hisobotlarini tubdan qisqartirish yuzasidan kompleks chora-

³⁴ www.soliq.uz

tadbirlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan ushbu chora-tadbirlarning asosiy maqsadlaridan biri bu – soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish va budjet daromadlar bazasini kengaytirishdir. Bunday qilishga sabab, Davlat budjeti daromadlarining asosiy qismini soliqlar tashkil etadi. Soliqlarni o'z vaqtida budjetga undirilishi esa, davlatning oldindan rejalashtirilgan zarur xarajatlarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Davlat budjeti daromadlarining ortishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga va moliyaviy barqarorlikka erishishiga xizmat qiladi. Shu sababli soliqlarni yig'iluvchanligini oshirish, budjetga qo'shimcha daromad zaxiralarini aniqlash hamda yashirin iqtisodiyot darajasini qisqartirish davlat tomonidan bajarilishi muhim bo'lgan vazifalardan biri sanaladi.

Hududlarni soliq potensialini aniqlash va soliqlarni undirishni yanada takomillashtirish va samarali budjet-soliq siyosatini yuritishimiz borasida quyidagi takliflarimizni keltirib o'tamiz.

Soliqlarni undirishda xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chet elda soliq qarzdorligini undirish bilan shug'ullanuvchi xususiy firmalar ham mavjud bo'lib ular o'z faoliyatini davlat soliq organlari bilan birgalikda amalga oshiradi. Bu ham o'z navbatida davlat budjetiga to'lovlarni ta'minlab beradi.

Adabiyotlar/ Лумепамыра/ Reference:

ACIR (1982) *Advisory Commission on Intergovernmental Relations. Tax Capacity of the Fifty States: Methodology and Estimates.*

Kuo, C.-Y. (2000) 'Estimation of Tax Revenue and Tax Capacity', *Development Discussion Papers.*

Каратаев, А.С. (2010) ИНСТРУМЕНТАРИЙ ОЦЕНКИ НАЛОГОВОГО ПОТЕНЦИАЛА КРУПНЕЙШЕГО НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКА, *Вектор науки Тольяттинского государственного университета.*

Миронов, А.А. (2012) *Методический инструментарий оценки налогового потенциала региона.*

Пелевин, И. Ю. (2014) АНАЛИЗ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ ПОДХОДОВ И МЕТОДОВ ОЦЕНКИ НАЛОГОВОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНОВ, *Статистика и Экономика. doi: 10.21686/2500-3925-2014-5-70-72.*

Прокопенко Р.А (2007) *Понятие и роль налогового потенциала в экономическом развитии региона / Научный журнал «Современные наукоемкие технологии». №12*

Пугачев, А.А. (2016) *Развитие налогового потенциала региона в рамках совершенствования налогового федерализма. с-72-76*

Рощупкина, В.В. (2014) *Теория и методология комплексной оценки налогового потенциала региона.*

Худжамуратович, И. А. (2017) "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 2, март-апрель.

Шухрат, М., (2020) *Научный, and Финансовый Институт, Т. 'Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar' Ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel.*